



## 2020- yil yanvar- iyun oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **1 930,0** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **90,9 %** ni tashkil etdi.




### 2020- yil yanvar- iyun oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu- o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2,2 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **122,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **31,3 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **126,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **104,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **59,8 %**) o'sishidir.




**Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

|                                      | holatiga ko'ra: |                 | O'tgan yilga<br>nisbatan, % da |
|--------------------------------------|-----------------|-----------------|--------------------------------|
|                                      | 01.07.2019- yil | 01.07.2020- yil |                                |
| <b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b> | <b>2012</b>     | <b>2233</b>     | <b>111,0</b>                   |
| <b>Nukus sh.</b>                     | <b>1065</b>     | <b>1115</b>     | <b>104,7</b>                   |
| <b>tumanlar:</b>                     |                 |                 |                                |
| <b>Amudaryo</b>                      | <b>60</b>       | <b>58</b>       | <b>96,7</b>                    |
| <b>Beruniy</b>                       | <b>94</b>       | <b>106</b>      | <b>112,8</b>                   |
| <b>Bo'zotov</b>                      | <b>-</b>        | <b>14</b>       | <b>-</b>                       |
| <b>Qorao`zak</b>                     | <b>30</b>       | <b>37</b>       | <b>123,3</b>                   |
| <b>Kegeyli</b>                       | <b>52</b>       | <b>49</b>       | <b>94,2</b>                    |
| <b>Qo'ng'iro't</b>                   | <b>81</b>       | <b>96</b>       | <b>118,8</b>                   |
| <b>Qonliko'l</b>                     | <b>33</b>       | <b>34</b>       | <b>103,0</b>                   |
| <b>Mo'ynoq</b>                       | <b>23</b>       | <b>48</b>       | <b>208,7</b>                   |
| <b>Nukus</b>                         | <b>70</b>       | <b>91</b>       | <b>130,0</b>                   |
| <b>Taxiatosh</b>                     | <b>61</b>       | <b>72</b>       | <b>118,0</b>                   |
| <b>Taxtak'o'pir</b>                  | <b>24</b>       | <b>26</b>       | <b>108,3</b>                   |
| <b>To'rtko'l</b>                     | <b>149</b>      | <b>181</b>      | <b>121,5</b>                   |
| <b>Xo'jayli</b>                      | <b>101</b>      | <b>117</b>      | <b>115,8</b>                   |
| <b>Chimboy</b>                       | <b>41</b>       | <b>49</b>       | <b>119,5</b>                   |
| <b>Shumanoy</b>                      | <b>31</b>       | <b>43</b>       | <b>138,7</b>                   |
| <b>Ellikqal`a</b>                    | <b>97</b>       | <b>97</b>       | <b>100,0</b>                   |



## Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 01.07.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)



**Ma'lumot uchun:** respublikada soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Nukus sh. (49,9 %), To'rtko'l tumani (8,1 %) va Xo'jayli (5,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar- iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **123,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan **57,0 %** ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **3,8 %** punktga kamayib, **6,4 %** ni tashkil etdi.



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da




**O'SISH SUR'ATI 57,0 %**

● 2019- yil  
yanvar- iyun

● 2020- yil  
yanvar- iyun

**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qo'ng'irot (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **30,4 %** i yoki 2019- yilning yanvar- iyun oyiga nisbatan **48,8 %**), Kegeyli (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **18,0 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **81,0 %**), va Taxiotosh tumanlari (jami qurilish ishlari hajmining **24,5 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **50,8 %** ) ga to'g'ri keldi.

**Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona  
va mikrofirmalarning ulushi, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **84,0 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan **23,2 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **124,9 %** ni tashkil etgan holda **1 620,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamaydii va **9,6 %** ni tashkil etdi yoki **185,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan **31,4 %** ni tashkil etdi.*




## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **101,8** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **219,2** % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1828,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **148,5** % ni tashkil etdi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **5,3** % va **94,7** % ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



2020- yil  
yanvar- iyun

Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari

7



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya,  
kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar- iyun

57,5 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **57,5 %** i yoki **1110,5** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

45,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **55,8** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **45,3 %** ni tashkil etdi.

55,5 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **899,1** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **55,5 %** ni tashkil etdi.

83,8 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **155,6** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **83,8 %** ni tashkil etdi.



**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari**  
**2020- yil yanvar- iyun oylarida**

|                                          | <b>Qurilish<br/>ishlari<br/>hajmi<br/>(mlrd. so'm)</b> | <b>O'sish sur'ati,<br/>% da</b> | <b>Umumiy hajmdan<br/>yangi qurilish,<br/>rekonstruksiya<br/>(mlrd. so'm)</b> |
|------------------------------------------|--------------------------------------------------------|---------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Qoraqalpog'iston<br/>Respublikasi</b> | <b>1930,0</b>                                          | <b>90,9</b>                     | <b>100,0</b>                                                                  |
| <b>Nukus sh.</b>                         | <b>559,8</b>                                           | <b>81,5</b>                     | <b>29,0</b>                                                                   |
| <b>tumanlar:</b>                         |                                                        |                                 |                                                                               |
| <b>Amudaryo</b>                          | <b>77,7</b>                                            | <b>101,6</b>                    | <b>4,0</b>                                                                    |
| <b>Beruniy</b>                           | <b>115,0</b>                                           | <b>74,2</b>                     | <b>6,0</b>                                                                    |
| <b>Bo'zotov</b>                          | <b>14,9</b>                                            | <b>243,0</b>                    | <b>0,8</b>                                                                    |
| <b>Qorao'zak</b>                         | <b>29,6</b>                                            | <b>100,0</b>                    | <b>1,5</b>                                                                    |
| <b>Kegeyli</b>                           | <b>46,2</b>                                            | <b>101,0</b>                    | <b>2,4</b>                                                                    |
| <b>Qo'ng'iro't</b>                       | <b>202,0</b>                                           | <b>100,1</b>                    | <b>10,6</b>                                                                   |
| <b>Qonliko'l</b>                         | <b>44,8</b>                                            | <b>100,8</b>                    | <b>2,3</b>                                                                    |
| <b>Mo'ynoq</b>                           | <b>91,2</b>                                            | <b>100,2</b>                    | <b>4,7</b>                                                                    |
| <b>Nukus</b>                             | <b>117,2</b>                                           | <b>100,5</b>                    | <b>6,1</b>                                                                    |
| <b>Taxiatosh</b>                         | <b>67,9</b>                                            | <b>80,8</b>                     | <b>3,5</b>                                                                    |
| <b>Taxtako'pir</b>                       | <b>68,4</b>                                            | <b>150,1</b>                    | <b>3,5</b>                                                                    |
| <b>To'rtko'l</b>                         | <b>197,2</b>                                           | <b>101,1</b>                    | <b>10,2</b>                                                                   |
| <b>Xo'jayli</b>                          | <b>152,2</b>                                           | <b>80,5</b>                     | <b>7,9</b>                                                                    |
| <b>Chimboy</b>                           | <b>30,9</b>                                            | <b>100,2</b>                    | <b>1,6</b>                                                                    |
| <b>Shumanoy</b>                          | <b>21,9</b>                                            | <b>84,9</b>                     | <b>1,1</b>                                                                    |
| <b>Ellikqal'a</b>                        | <b>93,1</b>                                            | <b>93,2</b>                     | <b>4,8</b>                                                                    |



Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish  
ishlari,% da

2019- yil yanvar- iyun

16,3



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

13,9



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

69,8



Binolar va inshootlarni  
qurish

2020- yil yanvar- iyun

18,1



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

16,8



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

65,1



Binolar va inshootlarni  
qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Binolar va inshootlar qurilishi

### ulushi % da

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **0,2 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,8 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar- iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **27,6 %** punktga ko'payib, **85,0 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **14,8 %** punktga kamayib, **26,8 %** ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **20,3 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **9,5 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **79,7 %** (**9,5 %** punktga ko'payish)ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi, % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan **16,7 %** punktga kamaydi va **15,6 %** ni tashkil etdi. Qolgan **84,4 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **16,7 %** punktga ko'paydi.





**Shahar va tumanlar kesimida kesimida korxonalar  
turlari bo'yicha qurilish ishlari  
2020- yil yanvar- iyun oylarida**

*mlrd. so'm*

|                                          | Qurilish<br>ishlari hajmi | shu jumladan:                   |                                      |                    |
|------------------------------------------|---------------------------|---------------------------------|--------------------------------------|--------------------|
|                                          |                           | Yirik qurilish<br>tashkilotlari | Kichik<br>korxona va<br>mikrofimalar | Norasmiy<br>sektor |
| <b>Qoraqalpog'iston<br/>Respublikasi</b> | <b>1930,0</b>             | <b>123,4</b>                    | <b>1620,8</b>                        | <b>185,8</b>       |
| <b>Nukus sh.</b>                         | <b>559,8</b>              | <b>9,1</b>                      | <b>535,5</b>                         | <b>15,2</b>        |
| <b>tumanlar:</b>                         |                           |                                 |                                      |                    |
| <b>Amudaryo</b>                          | <b>77,7</b>               | <b>6,0</b>                      | <b>57,3</b>                          | <b>14,4</b>        |
| <b>Beruniy</b>                           | <b>115,0</b>              | <b>-</b>                        | <b>95,0</b>                          | <b>20,0</b>        |
| <b>Bo'zotov</b>                          | <b>14,9</b>               | <b>2,1</b>                      | <b>11,9</b>                          | <b>0,9</b>         |
| <b>Qorao`zak</b>                         | <b>29,6</b>               | <b>0,1</b>                      | <b>28,0</b>                          | <b>1,5</b>         |
| <b>Kegeyli</b>                           | <b>46,2</b>               | <b>8,3</b>                      | <b>33,1</b>                          | <b>4,8</b>         |
| <b>Qo'ng'irot</b>                        | <b>202,0</b>              | <b>61,5</b>                     | <b>130,5</b>                         | <b>10,0</b>        |
| <b>Qonliko'l</b>                         | <b>44,8</b>               | <b>-</b>                        | <b>34,2</b>                          | <b>10,6</b>        |
| <b>Mo'ynoq</b>                           | <b>91,2</b>               | <b>2,4</b>                      | <b>81,9</b>                          | <b>6,9</b>         |
| <b>Nukus</b>                             | <b>117,2</b>              | <b>0,3</b>                      | <b>89,6</b>                          | <b>27,3</b>        |
| <b>Taxiatosh</b>                         | <b>67,9</b>               | <b>16,6</b>                     | <b>46,1</b>                          | <b>5,2</b>         |
| <b>Taxtakopir</b>                        | <b>68,4</b>               | <b>0,3</b>                      | <b>65,5</b>                          | <b>2,6</b>         |
| <b>To'rtko'l</b>                         | <b>197,2</b>              | <b>0,6</b>                      | <b>161,1</b>                         | <b>35,5</b>        |
| <b>Xo'jayli</b>                          | <b>152,2</b>              | <b>10,8</b>                     | <b>129,5</b>                         | <b>11,9</b>        |
| <b>Chimboy</b>                           | <b>30,9</b>               | <b>2,1</b>                      | <b>26,8</b>                          | <b>2,0</b>         |
| <b>Shumanoy</b>                          | <b>21,9</b>               | <b>-</b>                        | <b>19,7</b>                          | <b>2,2</b>         |
| <b>Ellikqal'a</b>                        | <b>93,1</b>               | <b>3,1</b>                      | <b>75,1</b>                          | <b>14,9</b>        |

**2020- yil  
yanvar- iyun**

**Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari**



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar- iyun oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Nukus sh.  
559,8

2

To'rtko'l  
197,2

1

Qo'ng'irot  
202,0

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Shumanoy  
21,9

2

Qorao'zak  
29,6

1

Bo'zotov  
14,9

3





## **QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika  
boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (61) 224-92-14  
(61) 222-75-91**